# O`ZBEK TILIDA FE`L

**Saidova *Zarina Saidovna***
*BDPI fransuz tili o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o`zbek tilidagi fe`l so`z turkumini va u bilan bog`liq masalalarni o`rganish maqsad qilib qo`yilgan. Fe`l, fe`l kategoriyalari va ularning qo`shimchalari, ulardagi jihatlar, sodda, yasama va qo`shma fe`llar haqida tushunchalar berilgan va misollar bilan izohlangan.

**Kalit so`zlar:** fe`l, o`timli fe`l, o`timsiz fe`l, harakat fe`llari, holat fe`llari, vositali to`ldiruvchi, shaxssiz fe`llar, zamon, fe`l kategoriyalari, sodda, yasama va qo`shma fe`llar.

"Leksikada fe`l kategoriyasi alohida o`rin tutadi. U maxsus so`z kategoriyasi sifatida bir tomondan tilda, leksikada alohida o`rin tutsa, ikkinchi tomondan , grammatik qurilishda gap tuzilishida ham katta ahamiyatga ega. Fe`l sistemasi grammatik qurilishda eng muhim rol o`ynovchi vositalardan biri bo`lishi kabi, o`zining har xil forma va kategoriyalari, turli shakl va funksiyalari, o`ziga xos spesifik ottenkalari bilan ham morfologiyada muhim rol o`ynaydi. Fe`l kategoriyasi o`zining ana shu grammatik va morfologik xususiyatlari bilan til qurilishida ajralib turadi" ,- deb yozadi tilshunos olim S. Mutallibov o`zining "XI asr yozma yodgorliklarida fe`l kategoriyasi" kitobida.

Fe`l shaxs va predmetning harakat va holatini bildirib, gapda kesim vazifasida keluvchi mustaqil so`z turkumi hisoblanadi.

O`zbek tilida harakat fe'llari shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro‘y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar hisoblanadi.

Masalan, harakatga xos yaratish, buzish, o‘zgartirish, so‘zlash, sezish, yo‘naltirishni ifodalaydigan fe`llar shular sirasiga kiradi.

Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar holat fe'llari deb aytiladi. Masalan: *shodlandi, sarg`aydi* kabi va bu fe`llar nima qildi, nima qilyapti, nima qilmoqchi so`roqlariga javob beradi. Buni quyidagi misolda ko`rishimiz mumkin.

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo`r etding,
Ko`zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim.(Usmon Nosir "Yurak" she`ri).

O`zbek tilida fe’lning morfologik xususiyatlari fe’llardagi so‘z yasalish tizimining faolligi, o‘timli-o‘timsizlik, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari hamda vazifa va ma’no turlarining mavjudligi fe’l turkumining qamrovi kengligini ko‘rsatadi.

Fe`lning nisbat (daraja) kategoriyasi harakatning subyekt va obyektga bo’lgan munosabatini ifoda etadi.[1] O’zbek tilida ularning besh xil shakli ajratiladi:

1. Aniq nisbat. Bunda harakat ega tomonidan bajariladi. Masalan: Ali Qushchi kaftini qoshlari ustiga tutib, navkarlarni yaxshiroq ko`rishga urindi. (Odil Yoqubov “Ulug`bek xazinasi”) Yoki: Ikrom etagidagi handalaklardan birini cholning oldiga qo`ydi. (Said Ahmad “Ufq”)

2. O`zlik nisbat. Bajaruvchining o`z ustida amalga oshirilishini ko`rsatuvchi nisbat. Misol uchun yuvindi, kiyindi, ko’rinmoq, ochilmoq, kerilmoq, joylashmoq kabi.

3. Majhullik nisbati. Bu nisbatda bajaruvchi noma`lum bo`ladi. Yuvildi, kiyildi, olinmoq, aytilmoq, tozalanmoq, bo’shatilmoq, yurilmoq kabi fe`llar mana shu nisbat jumlasiga kiradi.

4.Birgalik nisbati. Ish-harakatning birgalikda bajarilishini ko`rsatadi. Masalan yuvishdi, yozishmoq, keltirishmoq, ko’rsatishmoq, arazlashmoq, ketishmoq.

5.Orttirma nisbati. Bu nisbatda ish- harakat boshqalar tomonidan bajarilganini bildiradi. – jo`nattirdi, yubortirdi, yuvdirtirdi, keltirmoq, yozdirmoq, o’tkazmoq, ishlatmoq, tomizmoq, pishirmoq, qaytarmoq, ko’rsatmoq;

Fe`lning bo’lishli-bo’lishsizlik kategoriyasi harakatning bajarilishi bilan bog’liq tasdiq yoki inkorni anglatadi. Buni quyidagi jadvalda ko`rishimiz mumkin.

1-jadval

| **bo’lishli fe’l** | **bo’lishsiz fe’l** |
|---|---|
| tasdiq | Inkor |
| keldi | kelmadi |
| bordi | bormadi |
| kuydi | kuymadi |
| yozdi | yozmadi |
| kuldi | kulmadi |

[1] Hojiyev A. Fe`l. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1973 y. 91-bet.

Harakatning voqelikka munosabatini ifodalaydigan grammatik shakllar fe`l mayllari deyiladi. Ular uch guruhga bo`linadi.

1. Aniqlik mayli. Bu mayl uch zamondan, ya`ni hozirgi, o`tgan, kelasi zamonlardan birida aniq bajariladigan yoki bajarilmaydigan harakatni bildiradi.

Misol: Ikromjon osmonga qaray-qaray ko`chaga chiqib ketdi (Said Ahmad. “Ufq”)

Buyruq istak mayli. Bu mayl ish-harakatning bajarilishi jarayonidagi buyruqni, istakni, iltimos, undash ma`nolarini ifodalaydi.

Misol: Yaxshilab eshitib, qulog`inga quyib ol. Amakimning ko`ngli yarimta, yonimdan jilma (Said Ahmad “Ufq” )

Shart mayli. Biror harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart qilib qo`yilgan harakatni ifodalaydi. Fe`lning shart mayli shakli fe`l negiziga

-sa qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan hosil bo`ladi.

Misol: yozsam edi, o`qisam edi.

Fe`lning zamon kategoriyasi harakat bajarilishiga bog’liq vaqt, paytni aks ettiradi. Ular o’tgan, hozirgi va kelasi zamon shaklida bo’ladi:

-o’tgan zamon fe’llari harakatning nutq momentidan avval bajarilganligini ko’rsatadi: o’qidi, yozgan, boribdi;

-hozirgi zamon fe’llari harakatning nutq momenti bilan bir vaqtda kechayotganligini ifodalaydi: kelyapti, ishlayotir, ketmoqda:

-kelasi zamon fe’llari harakatning nutq momentidan keyin bajarilishini aks ettiradi: tayyorlanmoqchi, gapirar;

Fe`lning shaxs-son kategoriyasi harakatning bajaruvchisini , ya`ni egasini ko’rsatadi. O’zbek tilida uch xil shaxs (I, II, III) va ikki xil son (birlik, ko’plik) ko’rsatkichlari mavjud. Quyidagi jadvalda buni yaqqol ko`rishimiz mumkin:

2-jadval

| shaxs | Birlik | Ko`plik |
|---|---|---|
| I shaxs | keldim, gapiryapman, | keldik, gapiryapmiz |
| II shaxs | kelding, gapiryapsan | keldingiz, gapiryapsiz(lar) |
| III shaxs | keldi, gapiryapti | keldilar, gapiryaptilar |

O`zbek tilida fe'llar boshqa so'z turkumlari kabi morfologik tuzilishiga ko'ra *sodda, yasama va qo'shma fe'llar*ga bo'linadi.

Sodda (yoki tub) fe'llar bir o'zakdan iborat bo'lib, sodda fe'llar tarkibida qo'shimcha yoki old qo'shimcha bo'lmaydi.

Masalan: *kelmoq, ko'rmoq, ishlamoq, o'smoq.*

Yasama fe'llar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va taqlid so'zlarga maxsus qo'shimchalar qo'shish orqali fe'l yasash *morfologik usul* hisoblanadi. Fe'llar asosan, quyidagi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi:

***-la.*** *gulla, kuyla, qorala, oqla, yangila, hozirla.*

***-a*** *sana, o'yna, bo'sha.*

***-y (-ay)*** *kuchay, qoray, ozay, zo'ray.*

***-r (-ar)*** *ko'kar, qizar, yoshar, eskir.*

***-ik (-iq)*** *kechik, birik, zo'riq, chiniq.*

***-sira*** *sensira, yotsira, uyqusira.*

***-i*** *boyi, tinchi, changi.*

***-qir*** *o'shqir, hayqir.*

***-lan (-lash)*** *otlan, yaxshilan, suhbatlash, yordamlash, tezlash.*

***-illa*** *yaltilla, gurilla, do'rilla.*

***-ira*** *yaltira, yarqira.*

***-ir*** *gapir, tupir.*

Sintaktik usul bilan fe'l yasash. Bu usul bilan qo'shma va juft fe'llar hosil qilinadi.

*Qo'shma fe'l* ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi va yetakchi va ko'makchi qismlardan tarkib topadi.

Misol uchun *Imzo qo'ymoq: imzo*-yetakchi, *qo'ymoq*-ko'makchi qism. Asosiy ma'no yetakchi qism orqali ifodalanadi, ko'makchi qism esa qo'shma fe'l hosil qilishda va turli qo'shimcha ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi: *borib keldi, kirib chiqdi, tabassum qildi, ta'zim qildi, ta'zim bajo keltirdi* kabi.

Qo'shma fe'l tarkibidagi so'zlarni tabiatiga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

***1. Fe'l+fe'l*** tipidagi qo'shma fe'l: *sotib olmoq, kirib chiqmoq, borib kelmoq, olib kelmoq.*

***2. Ot+fe'l*** tipidagi qo'shma fe'l: *va'da bermoq, quloq solmoq, iltimos qilmoq, himoya qilmoq.*

Bu tipdagi qo‘shma fe’llarning ayrimlari sodda fe’llarga sinonim bo‘ladi: *tamom qildi – tamomladi, yordam berdi – yordamlashdi*. Bu tipdagi qo‘shma fe’llarni ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasidan farqlash kerak. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi yangi ma’no ifodalamaydi, balki yetakchi fe’ldan anglashilgan harakat ma’nosi bilan bog‘liq qo‘shimcha ma’nolarni ifodalaydi: *o‘qib chiqdi, yozib bo‘ldi, chizib ko‘rdi, tortib qo‘ydi, o‘chira boshladi.*

Ish – harakatning predmetga (to`ldiruvchiga) munosabati fe`ldagi o`timli va o`timsizlik ma`nosini hosil qiladi: *Ol, o'qi, saqla* kabilar o'timli fe'llardir. *Bor, kel, o'tir, uxla* kabilar o'timsiz fe'llardir. Harakatning tushum kelishigidagi ot bilan ifodalangan predmetga o'tganligini (vositasiz to'ldiruvchiga), ta'sir qilishini bildiradigan fe'llar o'timli fe'l deyiladi. ***Masalan:*** *ashula (ni,) aytmoq, xat (ni) yozmoq, kitob (ni) o‘qimoq, kino (ni) ko‘rmoq* kabi.[2]

**Xulosa**

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, fe`l so`z turkumini o`rganish jarayonida uning son kategoriyasi, mayl, zamon, nisbat, o‘timli-o‘timsizlik, bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyalarining mavjudligini va bu kategoriyalar fe’l turkumining qamrovi qanchalik kengligining guvohi bo`ldik.

Son kategoriyasi fe`l formalari orqali eganing birlik yoki ko`plikda ekanligini ko`rsatsa, mayl fe`ldan anglashilgan ish-harakatning voqelikka munosabatini anglatadi hamda ish-harakatning haqiqatan bajarilganini, bajarish haqida buyruqni, bajarilishi shart yoki bajarishga majbur ekanligini ifodalaydi. Zamon ma`nosi ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytga munosabatini ifodalaydi. Harakat so`zlanib turgan paytdan oldin, u bilan bir vaqtda yoki undan keyin bajarilishini ko`rsatadi. Nisbat ish-harakatning bajaruvchisi (sub`yekti) bilan predmeti (ob`yekti) o`rtasidagi munosabatni ko`rsatadi.

**Adabiyotlar ro`yxati:**

1. Hojiyev A. Fe`l. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1973.
2. Hamroyev M. Muhamedova D. Shodmonqulova D. G`ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent: “iqtisod – moliya” 2007.
3. Sayfullayeva R. Mengliyev B. Boqiyeva G. Qurbonova M. Yunusova Z. Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent. 2009.

[2] Hamroyev M. Muhamedova D. Shodmonqulova D. G`ulomova X. Yo`ldosheva Sh. Ona tili. Toshkent: “iqtisod – moliya” 2007 y-125 b.

4. Tursunov U. Muxtorov A. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent.1992.
5. Saidova Mukhayyo Umedilloevna and Abdurakhmonova Makhfuza Olimovna 2023. Effective strategies to teaching writing. *Texas Journal of Philology, Culture and History* . 17, (Apr. 2023), 17–20.\
6. Abdurakhmonova Makhfuza Olimovna 2023. The Importance of writing in English Language Classes. *Global Scientific Review*. 11, (Jan. 2023), 20–23.
7. Umedlloevna, S.M. and Olimovna, A.M. 2023. DIFFICULTIES IN TEACHING WRITING AND THEIR POSSIBLE SOLUTIONS. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*. (May 2023), 321–324.
8. Abduxakimova Maxfuza Abduraxmonova 2023. ACTIVITY OF DEVELOPMENT CENTERS IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Academia Science Repository*. 4, 04 (Apr. 2023), 770–775.
9. Tolibovna, Saidova Zakira. "INGLIZ TILI DARSLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TASHKIL QILISH." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2023): 736-736.
10. Tolibovna, Saidova Zakira. "Taxis Category and Sphere of Temporary Influence." *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT* 1.2 (2022): 137-138.
11. Saidova , . Z. ., & Zakiryayeva, M. (2023). SIMILARITIES AND DISSIMILARITIES IN TERMS OF WORDS FORMATION IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. Modern Science and Research, 2(4), 31–35. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/18829
12. Saidova, Z. ., & Khusenova, R. . (2023). THE DISSIMILARITIES OF WORD FORMATION IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. Modern Science and Research, 2(4), 28–30. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/18828
13. Saidova, Z. T. "TAXIS AS A CONCEPTUAL AND FUNCTIONAL-SEMANTIC CATEGORY." *Экономика и социум* 2-1 (93) (2022): 105-108.
14. Tolibovna, Saidova Zakira. "INGILIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH." *Conferencea* (2023): 87-91.
15. 7. Tolibovna, Saidova Zokira. "TAXIS AS A CONCEPTUAL AND FUNCTIONAL-SEMANTIC CATEGORY." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 8.8 (2021).
16. Tolibovna, Saidova Zakira. "Dependent and independent taxis." *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*. 2022.

17. Khodjaeva, Dilafruz Izatilloevna, and Zokira Tolibovna Saidova. "Interaction between Categories of Taxis and Temporality." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.3 (2022): 110-113.
18. Dilshod , S. T. og'li, & Xayrulloyeva , S. L. (2023). "ANALYSES OF THE HEROES" IN THE NOVEL "ORLANDO" BY VIRGINIA WOOLF. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "*, *2*(2), 15–22. Retrieved from https://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/1228
19. Khayrulloyeva Sitora Lutfulloyevna. (2023). TEACHING GRAMMAR IN CONTEXT. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429*, *12*(05), 66–68. Retrieved from http://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1761
20. S.L.Xayrulloyeva. (2023). THE THEMATIC ANALYSIS OF JOHN GREEN'S THE FAULT IN OUR STARS. https://doi.org/10.5281/zenodo.7529744
21. Arivovna K. N. Similarities in addressing the complex nature of love and devotion in methamorphosis by Kafka and in ghazals of Mir Alisher Navoiy //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 8. – №. 9 S3. – С. 1542-1545.
22. Arivovna K. N. Parallelism in transformation motives of Strange Case of Dr. Jekyll and Mr. Hyde by Stevenson and The Metamorphosis by Kafka //International Journal on Integrated Education. – 2019. – Т. 2. – №. 6. – С. 23-27.
23. Kadirova N. A. ANALYSIS OF TRANSFORMATION MOTIFS IN THE MAGIC HAT BOOK BY KHUDOYBERDI TUKHTABOYEV, THROUGH THE PRISM OF MIKHAIL BAKHTINS THEORIES //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 405-408.
24. Qudratova, S., & Akramova, F. (2023). MANIFESTATION OF THE CONCEPT OF "SPIRITUAL UPBRINGING" IN THE MODERN LIFE OF THE WEST. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/28
25. Qudratova Sitora Olimovna. (2022). INTERPRETATION OF SPIRITUALITY IN CLASSICAL LITERATURE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(1), 17–22. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/SEHM4
26. Qudratova Sitora Olimovna. (2023). SARAH ORN E JEWET, M.E WILKINS FREEMAN THE AMERICAN STORY WRITERS OF XX CENTURY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429*, *12*(05), 89–91. Retrieved from https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1767

27. Shaxnoza, S. . (2023). The Concept of “Dream” in the English and Uzbek Worldwide. *Miasto Przyszłości*, *33*, 190–192. Retrieved from https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/121
28. Shakhnoza S. THE ROLE OF GAMIFICATION IN TEACHING ENGLISH //PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 72-77.
29. Shakhnoza S. THE USE OF MOVIES IN LANGUAGE TEACHING //PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 78-83.
30. Darmon Saidakhmedovna Uraeva, & Nigina Akmalovna Khikmatova. (2021). DERIVATIVES OF WORDS, WORD COMBINATIONS AND PHRASES WITH THE WORD "MARKET" IN THE UZBEK LANGUAGE. Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 26-31. https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a5
31. TEACHING LANGUAGES TO YOUNG LEARNERS I.Z. NARZIYEVA, S FAYZIYEVA, E-Conference Globe, 2021
32. MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE SCIENCE IN JUNIOR CLASSES A.A.AKHMEDOVA, E-Conference Globe, 2021
33. MODELS OF TRANSLATION PROCESS AND THEIR TEACHING TO STUDENTS A.A.Akhmedova, Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 2022 – 1
34. MODELS OF TRANSLATION PROCESS AND THEIR TEACHING TO STUDENTS A.A.Akhmedova, Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 2022 - 1
35. Use of modern innovative technologies in teaching foreign language
36. A.Z.Azimovna, A.A.Abdulloevna, Вестник науки и образования, 2020
37. MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE SCIENCE IN JUNIOR CLASSES A.A.AKHMEDOVA, E-Conference Globe, 2021
38. IMPROVEMENT OF EDUCATIONAL PROCESS AND INTRODUCTION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES N.I.Zoirovna, MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, 2021
39. USING BRAINSTORMING IN A FOREIGN LANGUAGE TEACHING
40. I.Z.Narziyeva, INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE …,
41. Mehriniso Musinovna Rakhmatova, & Dilnoza Ilkhomovna Inoyatova. (2022). CONCEPTUAL AND FIGURATIVE STRUCTURE OF THE CONCEPT OF "UGLINESS". *Open Access Repository*, *8*(04), 58–61. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/6FTJ3
42. Rakhmatova, M. M., & Inoyatova, D. I. (2022). CONCEPTUAL AND FIGURATIVE STRUCTURE OF THE CONCEPT OF" UGLINESS". Open Access Repository, 8 (04), 58–61.
43. Ilxomovna, I. D. (2022, January). O'zbek tilida shaxs tasvirida xunuklik konseptining lisoniy xususiyatlari. In *Integration Conference on Integration of*

*Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 305-307).
44. Raximov, M. (2023). СЕМАНТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТА «ДОРОГА». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, *41*(41). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10835
45. Raximov, M. (2023). THE SYSTEM OF BIOLOGICAL STATIVE VERBS MEANINGS OF UZBEK LANGUAGE. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, *31*(31). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9225
46. Muradovich, R. M. (2021). The Image of a Woman in The Work of Uzbek Writers. *Eurasian Research Bulletin*, *3*, 7-12.
47. Rakhimov, Muzaffar M. "Methods in Cognitive Linguistics." *International Journal on Integrated Education*, vol. 3, no. 2, 2020, pp. 34-36, doi:10.31149/ijie.v3i2.8.
48. 48.R.Z. Gafurovna, DETECTIVE GENRE AND ITS PECULIARITIES. International Engineering Journal For Research & Development, 2021, https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ifolPZsAAAAJ&citation_for_view=ifolPZsAAAAJ:u-x6o8ySG0sC
49. 49. Z.Ro'zimurodova, Description of youth problem in the novel" Martin Eden". ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2021, pp. 206-210. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ifolPZsAAAAJ&citation_for_view=ifolPZsAAAAJ:d1gkVwhDpl0C
50. Ruzimurodova Zarifa Gafurovna. Translation Theory: Object of Research and Methods of Analysis. Journal of Impact Factor: International Journal of Progressive Sciences and Technologies. ISSN:2509-0119,Volume 24 No. 2 January 2021, pp. 35-40. https://ijpsat.ijsht-journals.org/index.php/ijpsat/article/view/2626
51. Rakhimov Muzaffar Muradovich. The Image of a Woman in The Work of Uzbek Writers. Eurasian Research Bulletin, ISSN: 2795-7365, Volume 3|December, 2021, pp. 7-12, Eurasian Research Bulletin (geniusjournals.org)
52. Mekhriniso Musinovna Rakhmatova, & Nilufar Furkatovna Botirova. (2022). NEW APPROACHES IN LATINO AMERICAN POETRY: CHICANO POETRY. *Open Access Repository*, *8*(04), 92–94. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/9FVCD
53. Musinovna , R. M. ., & G’ayratovna, G. N. . (2023). DEVELOPING CULTURE,LANGUAGE AND LITERATURE THROUGH INTERNATIONAL LITERATURE. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 82–84. Retrieved from https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/970

54. . Baxronova Matluba Axmedovna. (2022). BADIIY ASARLARGA KO'CHGAN HAYOT SABOQLARI. *Conferencea*, 401–404. Retrieved from https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/640
55. Bakhronova , M. A., & Sayfullayeva , M. (2022). DİCTATİON AS LANGUAGE LEARNİNG TOOL . *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, *2*(17), 252–258. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/1812
56. Uraeva Darmon Saidakhmedovna, and Bakhronova Matluba Akhmedovna. "THE USAGE OF DISEASE NAMES IN LITERATURE AND THEIR DERIVATION". *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429*, vol. 12, no. 06, June 2023, pp. 21-24, http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1799.
57. Akhmedovna, Bakhronova M. "Life Lessons and Literary Works." *International Journal on Integrated Education*, vol. 5, no. 6, 2022, pp. 213-217.
58. The Image of Disease in Edgar Allan Poe's "The Masque of the Red Death"
59. BM Akhmedovna, B Shakhnoza - Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2022
60. Bakhronova, M. A. (2020). Representation of disease names in the literature. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 141-144.
61. Nilufar, R. (2023). AGATHA CHRISTIE AS CRIME FICTION AFICIONADO. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 1(14), 65-71.
62. Rakhimova, N. G. (2023). CRIME FICTION: SUBGENRES AND AUTHORS. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 1(14), 61-64.